

## SATSILOGIYA FANINING JAMIYATIMIZDA TUTGAN O'RNI

SHaripova Dildora

"Berdaq" nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti Tarix fakulteti

Sotsiologiya yo'naliishi 2- kurs talabasi.

Kutimova Gulnara

Ilmiy rahbar: QMU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasи o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14571040>

*Annotatsiya. Bu maqolada satsiologiya fanining jamiyatimizda tutgan o'rni, jamiyat, uning yashashi va rivojlanishi haqida muhim fikrlar haqida sóz etilgan.*

**Tayanch so'zlar:** Jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy guruhlar, madaniyat, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy tafovut, ijtimoiy taraqqiyot, oila, ta'lif, ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy muammolar, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy ong.

### THE ROLE OF SOCIOLOGY IN OUR SOCIETY

**Abstract.** This article discusses the role of sociology in our society, important ideas about society, its existence and development.

**Keywords:** Society, social relations, social groups, culture, social equality, social institutions, social control, social difference, social development, family, education, social values, social problems, social cooperation, social consciousness.

### РОЛЬ СОЦИОЛОГИИ В НАШЕМ ОБЩЕСТВЕ

**Аннотация.** В данной статье говорится о роли социологической науки в нашем обществе, важных мыслях об обществе, его существовании и развитии.

**Ключевые слова:** Общество, социальные отношения, социальные группы, культура, социальное равенство, социальные институты, социальный контроль, социальные различия, социальное развитие, семья, образование, социальные ценности, социальные проблемы, социальное сотрудничество, общественное сознание.

Sotsiologiya (lot. *socius* — jamiyat, yun. λόγος — bilim, ta'lif, tushuncha) — bir butun tizim hisoblangan jamiyat haqidagi va ayrim ijtimoiy tartibotlar, jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, shaxs va jamiyat munosabatlari to'g'risidagi fan. Sotsiologiya ilmiy uslublar yordamida hosil qilingan empirik (tajribaga asoslangan) ma'lumotlarga tayanib umumlashma xulosalar chiqara oladi. Shu tufayli jamiyatning rivojlanish modellarini ilmiy asoslab beradi.

Jamiyat hayotini tushuntirishga urinishlar antik davrda (Platon, Aristotel va boshqalar) paydo bo'ldi, tarix falsafasida davom etdi. O'rta Osiyolik mutafakkirlar (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy) asarlarida ham jamiyat, uning yashashi va rivojlanishi haqida muhim fikrlar bildirilgan.

Sotsiologik tasavvur va qarashlar XIX asrning 1-yarmida O. Kont, G. Spenser kabi olimlar ijodi natijasida fan darajasiga ko‘tarildi va qariyb 200 yildan buyon rivojlanib kelmoqda.

Sotsiologiyaning asoschisi fransuz mutaffakiri Ogyust Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi. Turli davrlarda sotsiologiyaning mohiyati turlicha talqin etildi. Avvaliga u jamiyat haqidagi umumiy fan sifatida tushunilgan. Ayni vaqtida uning aniq ilmiy uslublarini nazarda tutgan holda ijtimoiy fizika deb ham izohlangan (L. Kettle).

XIX asrgacha sotsioliya falsafanining tarkibiy bir qismi bo‘lib kelgan. Dastlab Yevropada taraqqiy etgan sotsioliya G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida keng ijtimoiy muammolarni dalil va asosli ravishda qo‘ya boshladi (M. Veber, E. Dyurkheym, G. Zimmel (1858—1918), V. Pareto (1848—1923), P. Sorokin (1889—1968)). Shu ma’noda u mohiyatan makrosotsioliya edi.

Sotsiologiyaning Amerikadagi rivoji esa, odatda, „kichik“ ijtimoiy hodisalarini o‘rganuvchi mikrosotsioliya tarzida yangi qirralarini namoyon etdi (J. Dyui (1859—1952), Ya. Moreno (1892—1974), J. Xomans (1910), E. Meyo (1880—1949)). Keyinchalik sotsiologiyaning bu makro va mikro ko‘rinishlari T. Parsons (1902—1979), R. Merton (1910)ning nazariy ishlarida va P. Lazarsfeld (1901—1976)ning empirik tadqiqotlar uslubiyatida yagona tizimga keltirildi. Biroq sotsiologiyaning predmeti va ijtimoiy amaliyot uchun ahamiyati xususidagi bahslar haligacha davom etib kelyapti, yangi sotsioliya yaratishga urinishlar to‘xtamayapti.

Sotsioliya o‘z taraqqiyotining klassik davrida yaxlit bilimlar tizimi sifatida rivojlangan bo‘lsa, keyin bu fanga turli oqimlar va yo‘nalishlar kirib kela boshladi. Mexanistik nazariya tarafdarlari G. Ch. Keri (1798—1879), V. Ostvald (1853—1932), V. Pareto (1848—1923) sotsiologiyani ijtimoiy dunyo fizikasi deb hisoblashgan. Biologik nazariya, xususan, organik yo‘nalish (G. Spenser, L. Gumplovich), shuningdek, ijtimoiy darvinizm vakillari (Ch. Darwin va boshqalar) jamiyatni biologik dunyo qonuniyatlaridan kelib chiqib izohlashgan. Psixologik qarashlarda (D. S. Mill (1806—1873), MakDugall) jamiyat hayotidagi voqeа va jarayonlar tahlil nazariyasi, instinct nazariyasi asosida psixologik jihatdan tushuntirilgan. Xususan, Z. Freyd (jinsiy mayl), Ya. Moreno (jamiyatni individual-psixologik tushuntirish) qarashlari keyinchalik kollektiv-psixologik nazariyalarga olib keldi. Shu yo‘nalishda ijtimoiy-psixologik, bixevoiristik, simvolik interaksionizm, ijtimoiy harakatlar nazariyalari rivojlandi.

Hozirgi davrda funksionalizm zamonaliviy g‘arb sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalish vakillari (T. Parsons, R. Merton) jamiyatning funksional birligi, uning dinamik muvozanati muammolariga asosiy e’tiborni qaratadi. Formal-sotsiologik yo‘nalish F. Tennis (1855—1936), G. Zimmel, L. fon Vize (1876—1969) kabi sotsiologdar ijodi ta’sirida mustahkamlandi va rivojlandi. Bu yo‘nalish vakillari ijtimoiy hodisalarning mazmunidan ham ko‘ra ularning shakliga ko‘proq e’tibor berilsa, bu sotsioliya predmetiga mosroq bo‘ladi, deb hisoblaydi.

O‘zbekistonda ham sotsiologiya o‘z tarixiga ega. U ijtimoiy borliq muammolari xususida asrlar davomida fikr yuritib kelgan ulamoyu shoirlar, mutafakkiru hukmdorlarning izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Buyuk vatandoshlarimiz boshqa sohalar kabi sotsiologiyaning rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shdilar. Mukammal jamiyat g‘oyasi, davlatni boshqarish, jamiyatda shaxsning o‘rni va roli masalalari ular yaratgan turli janrlardagi asarlarga mavzu bo‘lganligiga qaramay sotsiologiya fanini mustaqillikdan so‘nggina lozim darajada rivojlantirish imkoniyati tug‘ildi.

O‘zbekistonda keng ko‘lamli nazariy-metodologik muammolarni qo‘yish, ijtimoiy dunyoga tahliliy nazar bilan qarash ko‘nikmalari hosil qilinmoqda. Sotsiologiya faniga oid kitob va risolalar, darslik va qo‘llanmalar yaratish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Sotsiologik tafakkurni shakllantirish, uni ta’lim tizimida, boshqaruvda, ommaviy axborot vositalari va boshqa sohalarda kengroq qo‘llashga harakat qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida „Sotsiologiya va boshqaruv psixologiyasi“ kafedrasи faoliyat yuritmoqda. Bir necha yillardan buyon „Ijtimoiy fikr“ jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish tajribasi to‘plandi. Bir nechta ilmiy muassasalar (O‘zbekiston milliy universiteti, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, viloyatlardagi universitetlar)da nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy fanning konturlari hatto T. Xobbs, J. Lokk, Sh. Monteskye va boshqa taniqli siyosiy faylasuflarning asarlariha ham aks eta boshladi.

Ammo, bu mualliflar nafaqat siyosiy tizimlarning o‘zgarishi, balki ishlab chiqarish usullari, ularning evolyutsiyasi, shu bilan birga, bu rivojlanish jamiyatga qanday ta’sir qilganini tahlil qilishda ongli ravishda bugungi kunda siyosiy sotsiologiya bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarga to‘xtalib o‘tdilar.

Siyosiy sotsiologiyaning paydo bo‘lishi odatda Maks Veber faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u birinchilardan bo‘lib hokimiyat munosabatlarining ijtimoiy tahlilini o‘tkazgan va jamiyatda hukmronlik turlarining tasnifini siyosatga olib kirgan (xarizmatik, an‘anaviy va ratsional-huquqiy yetakchilik). M. Veber Byurokratiyaning davlatni boshqaruvchi tuzilma sifatida faoliyat yuritish jarayonini tahlil qilgan va bunda asosan sotsiologik kategoriyalarga tayangan.

Shunday qilib, u mansabdor shaxslarning shaxsiy fazilatlari va ularning ijtimoiy guruhi sifatidagi xususiyatlariga qarab byurokratiyani bir nechta turlarga ajratdi. M. Veberning fikricha, boshqaruvda byurokratiya ideal usul bo‘lib, unga ko‘ra byurokratiya to‘laqonli ijtimoiy guruhi a’zolari uchun yagona mafkuraga sifatida o‘rin hosil qila oladi. Ushbu mafkuraga ko‘ra unda odamlar umumiy qadriyatlarga ega hisoblanib, burchlarini aniq his qilgan holda o‘zlarining emas, balki jamiyat manfaatlarini ko‘zlaydilar.

## REFERENCES

1. Социологический словарь: Пер. с англ. / Н. Аберкромби, С. Хилл, Б. С. Тернер. — М.: ЗАО Издательство „Экономика“, 2004. — С. 332.
2. ↑ <sup>Jump up to:2.0 2.1</sup> H. Баранов. „Политическая социология как наука“. 27-mart 2020-yilda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 27-mart 2020-yil.
3. ↑ Вебер, Макс. *Хозяйство и общество. Очерки понимающей социологии.*, 2017. [ISBN 978-5-7598-1514-3](#).